XIX ASR OXIRIDA MARKAZIY OSIYODA ROSSIYA VA BUYUK BRITANIYA GEOSIYOSIY MANFAATLARINING TARIXSHUNOSLIKDAGI AKS ETISHI

Abduraimova Qanoatxon Tilavoldi qizi
Farg‘ona davlat universiteti Jahon tarixi kafedrasi tayanch doktoranti
E-mail: abduraimovaqanoat@gmail.com
ORCID: 0009-0002-2653-8354

Annotatsiya: *Mazkur tezisda XIX asr oxirida xalqaro munosabatlarda Markaziy Osiyodagi Rossiya va Buyuk Britaniya o‘rtasidagi geosiyosiy raqobatning tarixshunoslikda aks etishi tahlil qilinadi. Tahlil qilishda bu raqobatning eng qizg‘in nuqtasi bo‘lgan Afg‘oniston chegara masalasi nuqtayi nazaridan ilgari surilgan qarashlar qiyosiy o‘rganiladi. Tadqiqot davomida har ikki tarixshunoslik maktabi vakillarining yondashuvlari, siyosiy va mafkuraviy asoslari hamda Afg‘onistonning “Katta o‘yin”dagi geosiyosiy o‘rni tahlil qilinadi.*

Kalit so‘zlar: *Rossiya imperiyasi, Buyuk Britaniya, Afg‘oniston, Markaziy Osiyo, tarixshunoslik, Katta o‘yin, chegara masalasi.*

KIRISH.

XIX asrning oxiriga kelib Markaziy Osiyo mintaqasi xalqaro maydonda geosiyosiy raqobat markaziga aylandi. Rossiya imperiyasining janubga tomon siljishi hamda Buyuk Britaniyaning Hindistondagi manfaatlari bilan bog‘liq siyosati Markaziy Osiyoni ikki imperiya manfaatlari tutashgan nuqtaga aylantirdi. Tarixda “Katta o‘yin” nomini olgan bu raqobat nafaqat siyosiy va diplomatik hujjatlarda, balki tarixiy adabiyotlarda ham o‘z aksini topdi.

Rossiya imperiyasi Turkiston o‘lkasini bosib olishi natijasida uning siyosiy ta’siri Afg‘oniston chegaralariga yaqinlashdi. Bu holat Britaniya imperiyasini jiddiy xavotirga soldi. Chunki Afg‘oniston Britaniya Hindistonining xavfsizligini ta’minlovchi strategik hudud sifatida baholanardi. Natijada Afg‘oniston ikki imperiya manfaatlari to‘qnashgan geosiyosiy makonga aylandi. Ayniqsa uning tobora janubga kengayib borayotgan Rossiya bilan chegaralarining noaniqligi masalani murakkablashtirdi. Chegara masalasi bilan bog‘liq siyosiy jarayonlar hamda ingliz-rus raqobati turli tarixchilar tomonidan turlicha talqin qilingan. Shuning uchun ham masalaning tarixshunoslikdagi yoritilishini o‘rganish XIX asr oxiridagi xalqaro vaziyatni tushunishda muhim ahamiyat kasb etadi. Tezisning maqsadi ham Markaziy Osiyoda Rossiya va Buyuk Britaniya geosiyosiy manfaatlarini rus va ingliz tarixshunosligida qanday aks etganini Rossiya-Afg‘oniston chegara masalasi misolida qiyosiy tahlil qilishdan iborat.

Asosiy qism

Tarixshunoslik nuqtai nazaridan masalani yoritilishini tahlil qilishda mavjud tadqiqotlarni uch guruhga ajratish maqsadga muvofiqdir:

1. Rossiya-Afg‘oniston chegara masalasining rus tarixshunosligidagi talqinlari
2. Ingliz tarixshunoslik maktabida shakllangan g‘oyalar
3. Rossiya-Afg‘oniston chegara masalasi va geosiyosiy manfaatlari

Rossiya-Afg‘oniston chegara masalasining rus tarixshunosligidagi talqinlari.

Rus tarixshunoslik maktabida Rossiyaning Markaziy Osiyodagi faolligini mintaqada xavfsizlik va barqarorlikni ta’minlash zarurati bilan izohlangan. Masalan rus harbiy tarixchisi M.A.Terentyev Rossiyaning O‘rta Osiyodagi siyosatini ochiq va izchil siyosat sifatida tarsvirlab, “Bizning O‘rta Osiyodagi siyosatimizda hech qanday sirlar yo‘q” deb ta’kidlagan [2;4]. Rus mualliflari Britaniya siyosatini tanqid qilib, uning asosiy maqsadi Rossiyaning mintaqadagi ta’sirini cheklash va geosiyosiy ustunlikni saqlab qolishdan iborat deb talqin qiladilar. Sovet davri tadqiqotchilari ham Britaniyaning Markaziy Osiyodagi siyosatini imperialistik manfaatlar bilan izohlab, uning “Hindistonni Rossiya tahdididan himoya qilish deb atalgan siyosatini Buyuk Britaniyaning agressiv siyosatini yashirishga qaratilgan g‘oya sifatida qayd etganlar[3;2].

Ingliz tarixshunoslik maktabida shakllangan g‘oyalar.

Ingliz tarixshunosligida Rossiyaning Markaziy Osiyodagi siyosiy harakatlarini asosan Hindiston xavfsizligiga tahdid sifatida baholaganlar. D.C.Boulger, G.N.Curzon, G.B.Malleson va C.Marvin singari mualliflar Rossiyaning janub tomon harakatlarini geosiyosiy ekspansiya, Buyuk Britaniyaga tahdid sifatida talqin qilganlar[1;4;5;6]. Xususan D.C.Boulger Rossiya ekspansiyasini “bo‘g‘ma ilon”ga qiyoslaydi [1;14]. Ingliz tarixshunoslari fikricha, Afg‘oniston Rossiya va Buyuk Britaniya imperiyalari o‘rtasida tampon hudud bo‘lib qolishi kerak edi. G.B.Malleson ham Afg‘onistonning strategik ahamiyati haqida ta’kidlab, “Afg‘onistonni Hindiston uchun hech qachon neytral zona bo‘la olmaydi” deb yozgan[5;34]. Ushbu yondashuv ingliz tarixshunosligida Afg‘onistonning mustaqil subyekt sifatida emas, balki Britaniya manfaatlariga xizmat qiluvchi Hindistonning bir bo‘lagi sifatida talqin qilinganini ko‘rsatadi.

Rossiya–Afg‘oniston chegara masalasi va geosiyosiy manfaatlar

Rossiya va Buyuk Britaniya o‘rtasidagi geosiyosiy raqobat Rossiya-Afg‘oniston chegara masalasida yaqqol namoyon bo‘ldi. Ayniqsa, 1885 yildagi Panjdeh inqirozi va 1895 yildagi Pomir masalasida ikki imperiya o‘rtasidagi munosabatlar keskinlashdi. Oqibatda chegaralarni delimitatsiya qilish masalasini kun tartibiga olib chiqdi. Mana shu voqealar ingliz tarixshunosligida Rossiya ekspansiyasining natijasi sifatida baholangan bo‘lsa, rus tarixshunosligida u imperiya xavfsizlik manfaatlari bilan izohlangan. Har ikki imperiya ham mintaqadgi harakatlarini xavfsizlik zarurati yuzasidan asoslashga intilgan bo‘lsa ham, aslida mintaqadgi geosiyosiy ustunlik uchun kurash olib borgan. Shuning uchun Afg‘oniston har ikki tarixshunoslik maktablarida strategik hudud sifatida talqin qilinib, uning mustaqilligi ikkinchi darajali ko‘rilgan.

Xulosa

Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, XIX asr oxirida Markaziy Osiyodagi ingliz-rus raqobati har ikki tarixshunoslik maktabida turlicha talqin qilingan. Davr voqealarini yoritishda har ikki imperiya vakillari o‘z mamlakatlari siyosiy va geosiyosiy manfaatlari nuqtai nazaridan yondashganlar. Shunga qaramay, har ikki taraf vakillari ham Afg‘onistonni strategik hudud sifatida e’tirof etganlar. Tadqiqot tahlili shuni ko‘rstadiki, tarixshunoslar o‘z mamlakatlari ekspansion harakatlarini oqlash hamda davlat manfaatlarini himoya qilishga intilganlar. Natijada tarixiy voqealarni yoritishda geosiyosiy manfaatlar muhim omil sifatida namoyon bo‘lgan.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Boulger D.C. *England and Russia in Central Asia*. – London: W.H. Allen & Co., 1879.
2. Терентьев М.А. Россия и Англия в Средней Азии. – СПб., 1875.
3. Хидоятов Г.А. Из истории англо-русских отношений в Средней Азии в конце XIX в. – Ташкент: Фан, 1969.
4. Curzon G.N. *Russia in Central Asia in 1889 and the Anglo-Russian Question*. – London, 1889.
5. Malleson G.B. *The Russo-Afghan Question and the Invasion of India*. – London, 1885.
6. Marvin C. *The Russians at Merv and Herat, and Their Power of Invading India*. – London, 1883.